


# PEDAGOGIK MAHORAT

**MS**  
**2021**



**ISSN 2181-6883**

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**MAXSUS SON  
(2021-yil, dekabr )**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

## **Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, Maxsus son**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

### **TAHRIR HAY’ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Hamroyev Aljon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O’rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otobek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

## MUNDARIJA

<b>Alijon HAMROEV.</b> Modeling activities of teachers when designing creative activities of students .....	7
<b>Matlab TILAVOVA.</b> Ta’lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
<b>G’ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA.</b> Markaziy osiyolik allomalarining tabiat haqidagi asarlaridan boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalanish .....	18
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA.</b> Ikki sonning yig‘indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko‘ra shu sonlarni topishga doir masalalar .....	20
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA.</b> Ko‘paytirish va bo‘lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar.....	24
<b>Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA.</b> Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo.....	28
<b>Nigora ADIZOVA.</b> Qiziqmachoqlarda hayot sabog‘ining o‘ziga xos talqini.....	30
<b>Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA.</b> “Qiziqmachoq” atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari .....	33
<b>Mohinur SAIDOVA.</b> Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisinining masofaviy ta’limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari .....	38
<b>Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA.</b> Boshlang‘ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish .....	42
<b>Nodira ADIZOVA.</b> Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
<b>Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO‘LATובה.</b> Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi .....	49
<b>Shoira BOBOYEVA.</b> Metodikada ona tili ta’limini modellashtirishga innovatsion yondashuv .....	51
<b>Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА.</b> С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии .....	58
<b>Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА.</b> Влияние международного исследования pirls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника .....	64
<b>Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА.</b> Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей .....	68
<b>Mehrinish HAKIMOVA.</b> Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta’minalashga doir metodik ta’mnot.....	72
<b>Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА.</b> “Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши” мавзусини ўқитища педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги .....	79
<b>Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА.</b> Преподавание биологии в школе .....	86
<b>Shoira QURBONOVA.</b> Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish .....	89
<b>Gavhar SAIDOVA.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o‘lchash malakalarini hosil qilish .....	92
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayonning mazmuni .....	94
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari .....	97
<b>Yulduz Pulatova.</b> Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons .....	101
<b>Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA.</b> Maktab o‘quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlari .....	107
<b>Adiba BAHRONOVA.</b> Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari .....	110
<b>Saodat QODIROVA.</b> Qadimiylar maqollar .....	113
<b>Dilshod DAVRONOV.</b> Zamon bilan hamnafas yashagan alloma .....	115
<b>Yulduz NUROVA.</b> Etnografiya va etnografiya munosabati .....	118
<b>Malika XAYDAROVA.</b> Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari .....	122
<b>Nodirabegim RAJABOVA.</b> Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quvchilarga figura yuzi tushunchasini o‘rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

**Hilola SAFAROVA**

Buxoro davlat universiteti  
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti

**Nigora SAFAROVA**

Buxoro davlat universiteti  
boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrası  
dotsenti

## NAVOIY JONGA MUHTOJ ERMAS, AMMO...

*Maqoda Alisher Navoiyning g‘azallari tahlil qilingan bo‘lib, undagi so‘zlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *g‘azal, tafakkur, Alisher Navoiy, millat, jon, la‘l, kofir, ofat, mayxona.*

*В статье анализируются стихотворения Алишера Навои и раскрывается смысл слов.*

**Ключевые слова:** *газель, созерцание, Алишер Навои, нация, душа, немой, неверный, бедствие, кабак.*

*The article analyzes the poems of Alisher Navoi and reveals the meaning of the words.*

**Key words:** *ghazal, tafakkur, Alisher Navoi, nation, soul, dumb, infidel, disaster, tavern.*

**Kirish.** Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Mana, necha asrlardan beri jahon ahlini shoir g‘azallari nazokati sehrlab kelmoqda.

**Asosiy qism.** Alisher Navoiy g‘azallariga xos mushtarak xususiyatlarning yetakchisi – har bir g‘azalining matlaida ifodalangan poetik fikrning baytdan baytga tadrijan o‘sib maqtagacha rivojlantirib, shu g‘oyaning betakror ifodalanishiga mos tasviriy vositalardan foydalanishidir. Shoir shu asosda butun g‘azal davomida bir mavzuning xilma-xil qirralarini ochib borib, g‘azalning yaxlit kompozitsion asosga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Quyida “Emas la‘ling qotili jonga muhtoj...” misrasi bilan boshlanadigan g‘azalni tahlilga tortdik.

Emas la‘ling qotili jonga muhtoj,  
Ko‘zungnung kofiri imong‘a muhtoj.  
Labing muhtojidur ko‘nglum, nachukkim,  
Skandar chashmasi hayvong‘a muhtoj.  
Chu maydon ichra surdung, bas bu ofat,  
Emas nazzora gar javlong‘a muhtoj.  
Tilar ko‘nglum o‘zin ishqing shahidi,  
Ki, bor ul g‘amzai fattong‘a muhtoj.  
Qochar ko‘nglum qushi tan kulbasidin,

Agarchi chug‘z erur vayrong‘a muhtoj.  
Yuzung qursu qamar, muhtoj anga men,  
Gado andoqqi bo‘lg‘ay nong‘a muhtoj.  
Fano mayxonasida qil gadolig‘,  
Desangkim, bo‘lmayin sultong‘a muhtoj.  
Anga muhtojroq menmen, agarchi,  
Erur ko‘p gar boqar har yonga muhtoj.  
Navoiy jonga muhtoj yermas, ammo,  
Erur yuz jon bila jonong‘a muhtoj [1, 74]

Alisher Navoiyning “Badoyi ul-vasat” devoniga kiruvchi bu g‘azal 9 baytdan iborat bo‘lib, ishqiy mavzuda yozilgan go‘zal she‘rlardan biri hisoblanadi. G‘azal hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, muhtoj so‘zi radif, imong‘a, hayvong‘a, javlong‘a, fattong‘a, vayrong‘a, nong‘a, har yonga so‘zları esa qofiyadosh bo‘lib kelgan.

E – masla – ling/qo – ti - li jon/-ga muh - toj,  
V - - - V - - - V - -  
Ko‘ – zung – nung- ko/ fi -ri i – mon / - g‘a muh -toj.  
V - - - V - - - V - -

G‘azalda quyidagi qiyin so‘zlar uchraydi: **Jon** – ruh, hayot, yashash; **la‘l** – lab, qizil rangli qimmatbaho tosh; **kofir** – islom dinini inkor etuvchi, dinsiz; **Skandan chashmasi** – Iskandar bulog‘i; **ofat** – balo, qazo, baxtsizlik; **nazzora** – nazar solish, qarash, boqish, ko‘z tashlash; **javlon** – jang, urush, savash; **g‘amza** – nozu karashma, ishva; **fatton** – fitna qiluvchi, fitnachi, maftunkor, jozibali; **chug‘z** – boyqush, boyo‘g‘li; qursu **qamar** – oy kulchasi; **fano** – o‘lish, o‘zini unutish; **mayxona** – may ichiladigan yer; tasavvufda alloh bilan ruhiy birlik, ma’naviy yaqinlik hosil qilish uchun so‘fiylar yig‘iladigan joy [2].

**Muhokamalar va natijalar.** Alisher Navoiyning muhtoj radifli g‘azalning matla’sini sharhlashning o‘zdayoq qanchalar ma’no mazmun yashirin ekanini ko‘rishimiz mumkin. Lirik qahramon oshiq ma’shuqaga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilib, yorning labi jonga emas, balki uning ko‘z qarashi imonga muhtojligini aytadi. Chunki, muslimonlikda ayollar hech qachon birovga tik boqib va ko‘zlarini katta-katta ochib qarashmagan. Ularning yerga qadalgan, uyalgan ko‘zları hayo va iboden darak bergan. Shuning uchun ham shoir “ko‘zungnung kofiri imong‘a muhtoj” deb bejizga aytib o‘tmaydi.

Ikkinci baytda suvsiz qolgan hayvonlar Iskandar bulog‘iga ehtiyoj sezganda bo‘lgan oshiqish, oshiq ko‘nglining ma’shuqa labiga bo‘lgan muhtojligiga qiyoslanadi.

Chu maydon ichra surdung, bas bu ofat,  
 Emas nazzora gar javlong'a muhtoj.  
 Ma'shuqaning bir ko'z tashlagandagi tug'yoni urushishlar uning oshiqqa qilgan balo va baxtsizliklari oldida hech nima emasligini shoir ta'kidlab o'tmoqda.  
 Tilar ko'nglum o'zin ishqing shahidi,  
 Ki, bor ul g'amzai fattong'a muhtoj.  
 Shoir bu misrada oshiq ko'ngli ma'shuqa ishqining qurboni bo'lsa ham maftunkor, fitna qiluvchi nozu karashmalariga muhtojlik qurban bo'lган ishqqa yana jon bag'ishlashi uchun ekanligini aytib o'tmoqda.  
 Qochar ko'nglum qushi tan kulbasidin,  
 Agarchi chug'z erur vayrong'a muhtoj.  
 Alisher Navoiy istiora va tashbehlardan foydalanib, boyqush yashash uchun vayronalarga muhtoj bo'lganidek, oshiq ko'ngli ishq otashidan "tan kulbasiga" sig'may, tark etishga tayyorligini ta'kidlanayapti.  
 Yuzung qursu qamar, muhtoj anga men,  
 Gado andoqqi bo'lg'ay nong'a muhtoj.  
 Bu misralarda ham shoir qiyoslash san'atidan unumli foydalangan. Ya'ni gado bir parcha nonga qanday zor bo'lsa, oshiq oqibatini o'ylamay ish qiladigan yorining oy yuziga xuddi shunday mushtoqligi birigiga qiyoslanib, ta'sirchanlik kuchaytirilgan.  
 Fano mayxonasida qil gadolig',  
 Desangkim, bo'lmayin sultong'a muhtoj.  
 Oshiqning holati, ishq alangasida yonishi misradan-misraga o'tgan sari yanada kuchayib boradi. Alisher Navoiy ishq zamirida davr ijtimoiy hodisalariga ham urg'u berib o'tadi. Oldingi misralarda berilgan fikrni yanada kuchaytirib berishga harakat qiladi. Alloh yo'lidan borib, o'zligingni anglab, sabr bilan o'z yo'lingni topsang, sultonga ham, birovlardan non so'rab ularning qo'liga ham muhtoj bo'lmaysan degan so'zлari juda ham o'rinni. Izlagan imkon topadi, deb bejiz aytishmagan. Alloh yo'liga kirgan inson birovning minnatidan, ishyoqmaslikdan, yomonlik qilishdan, hasad qilishdan hazar qiladi. O'z mehnati bilan topgan nonga qanoat qiladi. Ishq sohasida ham qiyinchiliklarga sabr-bardoshli bo'lib, vafodor bo'lish ulug'lanadi.  
 Anga muhtojroq menmen, agarchi,  
 Erur ko'p gar boqar har yonga muhtoj.  
 Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo  
 Erur yuz jon bila jonong'a muhtoj.  
 Bu misralardan ko'rinish turibdiki, oshiq ma'shuqani ko'rishga juda mushtoq. Uning uchun bitta joni tugul, yuzta joni bo'lsa ham kechishga tayyor.  
 G'azalda baytdan baytga o'tgan sari lirik qahramonning oshiqlik o'ti balandlab borganini ko'ramiz. Oxirgi baytda oshiqning o'z jonidan kechishi, ishqning kamolga yetganining ifodasidir.  
**Xulosa** shuki, oshiqlik – sabr-bardoshlik, o'z yo'lidan qaytmaslik, qiyinchiliklarga chidash, irodalilik, eng yaxshi ko'rgan narsalardan voz kechish va o'z maqsadiga erishish.

## Adabiyot

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoni. Badoe ul-vasat. MAT. Beshinchi tom.-Toshkent: "Fan", 1990. -542 bet.
2. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. –Toshkent: "Sharq", 2010. -528 bet.
3. Сафарова Х.А. ЭВОЛЮЦИЯ ПРИКЛЮЧЕНИЙ ЮСУФА И ЗУЛЕЙХО В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ // Редакционная коллегия. -2014.
4. Safarova N. "HAPPINESS IS THE FLAG LANGUAGE, FROMNARRINESS I AM ALSO A TONGUE!"... ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF POETSAMANDAR VOHIDOV// Конференции – 2020.
5. Maxmudova R. ПИСАТЕЛЬ, ПОСПЕВЩИЙ БОЛЬ НАРОДА. Til, adabiyot, tarjima, adabiy tanqidchilik xalqaro ilmiy forumi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar. // Konferensiya – 2021.
6. Rajabova M., Safarova N., Amonova Z. Analytical and synthesized folklorism in Navors work. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. // Редакционная коллегия. –2021.
7. H.O.Сафарова, Б.С.Жамилова Basics of Uzbek Children's Reading. TEST Engineering &Management. November-Desember 2019. ISSN: 0193-4120 Page No. 4207-4214. Email: <http://www.testmagzine.biz/index.php/testmagzine/article/view/573/513> (Скопус)